

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH



D.M.Xolnazarova

Guliston davlat pedagogika instituti v.b. dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining huquqiy madaniyatini rivojlantirishni takomillashtirish, ta'lim jarayoning samaradorligi, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: huquqiy ong va madaniyat, huquqiy madaniyatni rivojlantirish, demokratiya, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiya.

Jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan islohot va tendentsiyalar davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar, qarorlar, farmonlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar orqali jamiyat hayotiga kiritiladi. Shuningdek, normativ huquqiy hujjatlar to'liq amalga oshirilgan taqdirdagina islohotlar o'z samarasini beradi. Prezidentning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasida shunday deganlar: Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni rivojlantirishimiz kerakki, unga ko'ra Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, o'zgalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat bo'lib qolmay, balki kundalik qoida va odatga aylanishi lozim - deb aytdilar [1; 5-b.]. Shuningdek, ushbu nutqda davlat idoralarning jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish borasida amalga oshirayotgan faoliyati tanqidiy baholanib, ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolar va bajarilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar belgilanib olindi [1; 6-b.].

Demak, jamiyat taraqqiyoti davlatdagi huquqiy ong va madaniyatning yuqori darajada bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy bo'lagi bo'lgan huquqiy madaniyatning negizini huquqiy ong, huquqiy tafakkur tashkil etishi bilan belgilanadi. Shuningdek, huquqiy ong fuqaroning jamiyatdagi o'rnini belgilab, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi qanchalik yuqori bo'lsa, huquqiy normalarda belgilangan talablarning bajarilishi ham shunchalik to'liq va aniq bo'lishini naxarda tutadi [1; 5-b.]. Binobarin, jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan talabalarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga bog'liq. Chunki huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyati yuqori bo'lgan fuqarogina erkin iqtisodiy, demokratik va ma'naviy o'zgarishlarning ishonchli tayanchi bo'la oladi. Shuning uchun ham bugungi kunda har bir talabaning huquqiy madaniyatini, huquqiy ongini, bilimni davr talabidan kelib chiqib oshirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shaxsning huquqiy madaniyati huquqiy ongni shakllantirishdan va uning ijtimoiy ahamiyatli shaxs xulq-atvorini huquqiy tartibga solishdan iborat bo'lgan funktsiyasidan boshlanadi. Huquqiy madaniyat, eng avvalo, ma'lum darajadagi ta'limni, ya'ni to'plangan bilimlarni, ma'lumotlarni, g'oyalarni o'z ichiga oladi, lekin u faqat shu bilan bog'liq emas. Shuningdek, o'zlashtirilgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llash va bu ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, o'quvchilarni uzluksiz kasbiy o'sishga tayyorlash, o'z kuchiga tayanishga o'rgatish, o'z taqdiri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish zarurligini tushuntirish kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Bunday holda, o'qituvchining faoliyati o'qitish usullari va shakllari orqali o'quv jarayonini tashkil etishning ta'lim imkoniyatlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashning predmeti sifatida turli yondashuvlarga asoslanadi. Ta'lim jarayoni boshqa ijtimoiy voqeliklardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Demak, ta'lim jarayonining samaradorligi ushbu jarayon ishtirokchilarining faoliyatini tashkil etishda qo'llaniladigan usul va yondashuvlarning xususiyatlariga bog'liq. Ta'lim jarayoni tashkilotchilarining faoliyati ijtimoiy-pedagogik faoliyat sifatida qaralib, uning maqsadi o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy talablar asosida odamlarga ta'lim berish va tarbiyalashdir.

Turli xil o'qitish usullari (darslar, ekskursiyalar, treninglar, loyiha faoliyati, jamoaviy ish, guruh mashg'ulotlari, individual topshiriqlar va boshqalar) huquqiy bilimlarni olish va kognitiv qiziqishlarni rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida har bir kishi o'z manfaatlarini, qiziqishlarini, bilimi, ongi va tajribalariga muvofiq «huquqiy hayot yaratadi» [2]. Aynan shu sababli goho huquqbuzarliklar va qonunbuzarliklar kelib chiqadi, chunki «individual huquqiy hayot» jamiyat tomonidan qabul qilingan umumiy huquqiy normalarga qarshi chiqmay qolmaydi.

Huquqiy tarbiya ham aynan shu vazifani bajarishga yo'naltirilgan, chunki umumiy huquqiy hayot jamiyatning barcha sohalaridagi huquqiy hodisalar bilan bevosita bog'liqdir. U huquqiy faoliyatning barcha ko'rinishlarini, borliqni huquqiy anglash jarayonlari hamda davlat va huquqiy muassasalarning barcha faoliyatini qamrab oladi. Ushbu muassasalarning faoliyati jamiyatning umumiy huquqiy hayotiga kirishining boisi shuki, u ijtimoiy borliqdagi huquqiy ongga daxldordir [3].

Huquqiy tarbiyaning dolzarb masalalardan biri oliy ta'lim tashkilotlari talabalari ongida huquqiy mafkurani takomillashtirishdan iborat. «Milliy huquqiy mafkura, insonga turli ijtimoiy qatlamlar, guruhlar, partiyalarga, yangi siyosiy sharoitga moslashish imkoniyatini beradi. O'zbekistonda bozor iqtisodiga asoslangan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish konsepsiyasi huquqiy mafkuraning aniq timsoli bo'lib xizmat qiladi. Bu konsepsiya demokratiya, inson huquqlarini ta'minlash, ham umuminsoniy, ham milliy tasavvurlarga mos keluvchi insoniy va adolatli huquq-tartiboti bilan ajralib turadi. Mazkur holda huquqiy davlat aqidasi milliy davlatchiligimiz rivojining mafkuraviy asosi bo'lib xizmat qiladi». Demak, hech bir davlat va u shakllantiradigan huquqiy madaniyat huquqiy mafkurasiz fuqarolarda konstitutsiyaviy huquqlarni yuzaga keltirolmaydi. Konstitutsiyaviy huquqlarini bilmagan va to'g'ri anglamagan hech bir fuqaro fuqarolik jamiyatining ongli a'zosi bo'la olmaydi. Shuning uchun ham, «demokratik, ijtimoiy, madaniy va tarixiy asoslangan davlat-huquq mafkurasining mavjudligi har qanday jamiyat faoliyatining hayotiy muhim sharti hisoblanadi»[4]. Shu bilan birga, «Huquqiy mafkura, – deb yozadi Z.M.Islomov, – shaxsni yolg'izlatish, jamiyat va davlatdan ajratib qo'yish inson erki va tashabbusini bo'g'ish prinsiplariga asoslanmasligi lozim. Individuallik faqat ijtimoiylik orqaligina mavjud bo'lishi mumkin. Shaxs bilan jamiyat manfaatlarini o'rtasida ustunlik emas, balki oqilona uzviylik munosabati zarur [5]». Demak, shaxsning to'laqonli kamoli, huquq, majburiyat va burchining uyg'unligini ta'minlash insonning jamiyatga, uning madaniyatiga bevosita integratsiyalashuvi orqaligina ro'y beradi.

Huquqiy-ma'rifiy ishlarni olib borishda ommaviy axborot vositalari, targ'ibot ishlari bilan shug'ullanuvchi markazlar, ma'rifat burchaklari va xonalari, Adliya vazirligi qoshidagi aholiga yuridik xizmatlar ko'rsatuvchi huquqiy targ'ibot markazlari alohida ahamiyatga ega.

Talabalarning huquqiy madaniyatini baxolaganda talaba xuquq ko'rsatmalariga rioya etayotganligini aniqlash xam muximdir. Masalan, talabalar jazodan qo'rqib huquqiy me'yorlarning talablarini buzmayotgan bo'lishsa, bu ularda huquqiy madaniyat rivojlanganligidan dalolat bermaydi. Shuning uchun xam huquqni bilish va tushunishning o'zi yetarli emas, uni hurmat qilish, huquqiy talablarga rioya etishga majbur ekanligini e'tirof etish zarur.

Bilim xajmini kengaytirish va darajasini oshirish talabalarda qonuniy va qonunsiz, maqsadga muvofiq va maqsadga nomuvofiq xulq-atvorni to'g'ri baxolash qobiliyati vujudga kelishiga, ya'ni xuquqni tushunishga olib boradi. Albatta, xozirgi vaqtda xar bir yosh inson davlat-huquqiy faoliyatni ma'lum darajada tushunadi. Biroq, qonun ko'rsatmalarini bilish va tushunish ularni ro'yobga chiqarish uchun kifoya qilmaydi. Qonunni bilishning o'zi, agar bu Qonunga xurmat shakllangan bo'lmasa, xuquqbuzarlikdan tiyib qola olmaydi. Shu munosabat bilan huquqiy madaniyatning tarkibida xuquqqa xurmat degan narsa aloxida ajratib ko'rsatiladi.

Talabalarda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida yuqorida keltirilgan metodlar bilan bir qatorda, xuquq, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati borasida talabalarning boshlang'ich tushunchalarini rivojlantirish, ularda refleksiv yondashuv ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarida ijtimoiy-psixologik va metodologik xususiyatlarga ega bo'lgan trening,

interfaol suhbat, integrativ ma'ruza, ishchanlik o'yinlari kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, mazkur jarayonga innovatsiyalarni tatbiq etish, o'qitishning eng ilg'or texnologiyalaridan foydalanish, sub'ektlarning innovatsion faoliyatini tashkil etish asosida refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini shakllantirish, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sub'ektivligini oshirish hisobiga "o'qituvchi-talaba" munosabatlaridan "talaba-talaba" va "o'qituvchi-o'qituvchi" munosabatlariga o'tish asosida o'zaro ta'sir jarayonini vujudga keltirish hamda ularni shakllantirish zahirida, eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini takomillashtirish, ularning yangi shart-sharoitlarga, zamonaviy talablarga psixologik moslashuvini tezlashtirish asosida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash mumkin. Talabalar huquqiy madaniyati va ularni huquqiy tarbiyalashning mohiyatini faqat amaldagi qonun xujjatlarining me'yorlari va prinsiplari to'g'risida bir qator bilimlarni qo'lga kiritishdangina iborat emas. Talabalarni huquqiy tarbiyalash va ularda huquqiy madaniyatining maqsadi bo'lgan qonunga itoatkorlik va shaxsning qonunni xurmat qilishini shakllantirishdan iboratdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси, //, <https://uza.uz/uz/posts/adliya-vazirligi-yangicha-arash-ishlash-va-yangi-tashabbusla-16-12-2018>.
2. Таджиханов У. Ҳуқуқий маданият назарияси.// 1-т. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998. – 283 б.
3. Бельский К.Т. Формирование и развитие правового сознания в гражданском обществе. – М.: Изд-во МГУ, 1992. – С. 30–31.
4. Алимасов В. Ҳуқуқий маърифат ва ҳуқуқий маданият//. Т.: Ҳаёт ва қонун. - 2001.-№2. -Б. 70-71.
5. Капитонова М.В. Педагогические условия формирования Правовой культуры студенческой молодежи.: Дис... канд, автореферат, М-2008 22с
6. Xolnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. Conferencea, 126-134.
7. Xolnazarova, D. M., & Tangirberdiyev, S. H. (2024). YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI. TADQIQOTLAR. UZ, 37(1), 120-123.
8. Xolnazarova, D., & Tangirberdiyev, S. (2021). TALABALAR HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TALIM-TARBIYANING ROLI. Academic research in educational sciences, 2(3), 1313-1317.
9. Холназарова, Д. М. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 1(12), 225-232.
10. Xolnazarova, M. (2022). Factors and socio-psychological causes of behavior deviation in minors. NeuroQuantology, 20(20), 1781.
11. Xolnazarova, M. X. (2019). GENDER EQUALITY AS A SOCIO-HISTORICAL CATEGORY. Bulletin of Gulistan State University, 2020(1), 91-95.